

**Juraboyeva Mahbuba Asqarbek qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Xadicha Sulaymonova hayoti, huquq sohasida olib borgan faoliyati nuqtai nazaridan argumentlar va xulosalar tahlil qilinadi. Barcha keltirilgan argumentlar yuzasidan batafsil tahlil va yakuniy xulosa rasmiy manbalardan foydalangan holda yozildi. Sulaymonovaning o'zbek ayollarining huquqiy statusi, ularga tegishli tartibot va ularning ijtimoiy rolini oshirish yuzasidan qilgan ishlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, olimaning sud-huquq sohasida kiritgan takliflari, xalqning muammolarini hal etishdagi roli muhokama qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *rahbar, yuridik fanlari doktori, huquqshunos, Oliy sud raisi, jazo, xalq dardi, unitilmas siymo.*

**Abstract:** *In this article, arguments and conclusions are analyzed from the point of view of Khadicha Sulaimanova's life and activities in the field of law. A detailed analysis of all presented arguments and a final conclusion were written using official sources. Sulaimanova's work on the legal status of Uzbek women, the procedures related to them, and the improvement of their social role will be considered. Also, the scientist's proposals in the field of law and justice, his role in solving people's problems will be discussed.*

**Keywords:** *leader, doctor of legal sciences, jurist, chairman of the Supreme Court, punishment, public illness, unforgettable figure.*

**Аннотация:** В данной статье доводы и выводы анализируются с точки зрения жизни и деятельности Хадичи Сулаймановой в сфере права. Подробный анализ всех представленных аргументов и окончательный вывод были написаны с использованием официальных источников. Будут рассмотрены работы Сулаймановой по правовому статусу узбекских женщин, связанным с ними процедурам и повышению их социальной роли. Также будут обсуждаться предложения ученого в области права и правосудия, его роль в решении проблем людей.

**Ключевые слова:** *лидер, доктор юридических наук, юрист, председатель Верховного суда, наказание, общественная болезнь, незабвенная личность.*

Rahbar har qanday ijtimoiy guruhda taraqqiyotga intilishning siyosiy jihatdan strategik taktik yo'naliishlarini huquqiy jihatdan faoliyat imkoniyatlari va chegaralarni iqtisodiy jihatdan shart-sharoitlari moddiy asoslari va mahsulotlarini ma'naviy jihatdan esa tarbiyaviy, ma'rifiy va madaniy darajasini shakllantirishda yetakchi o'rin tutadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev har bir chiqishlarida quyidagi so'zlarni ta'kidlaydilar: "...odamlarni rozi qilish, aholining tashvishlaridan uzoq bo'lmaslik, uning dardi bilan yashash har qaysi rahbardan o'z ishiga tanqidiy qarab, men shu talablarga javob beryapmanmi yoki yo'qmi, degan savolni o'ziga berishni, o'z

mas'uliyatini oshirish, zimmasiga yuklatilgan vazifani o'z vaqtida bajarish va qonunga so'zsiz itoat qilishni taqozo etadi..."<sup>17</sup> Ana shunday rahbarlar mamlakatning farovonligiga, rivojlanishi va taraqqiyotiga hissasi sezilarli darajada bo'ladi. Xuddi shunday rahbarlar orasida Adliya vaziri, O'zSSR Oliy sud raisi lavozimlarida xizmat ko'rsatgan Xadicha Sulaymonovaning o'rni beqiyos.

Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyulda Andijon shahrida Sulaymon Kelginboyev xonardonida dunyoga kelgan. Bolaligidan hayotning achchiq zahmatlari, og'ir damlariga qaramay, o'zining matonati, sabr-bardoshi va irodasi bilan xalq sudyasiligidan O'zSSR Oliy sud raisi lavozimigacha ko'tarilgan. Olimaning huquqshunoslik sohasiga qiziqishi taniqli san'atkor marg'ilonlik Nurxonning qotili ustidan bo'lib o'tgan sud protsessi bilan bog'liq.Ushbu sud jarayoni unga qattiq ta'sir qiladi. Jinoyat va jazo to'g'risidagi qarashlarini o'zgatirib yuboradi va huquqshunoslik kasbiga mehri uyg'onadi. Xadicha Sulaymonova 1931-yilda rus maktabini tamomlaydi va Toshkentda ilk bor tashkil etilgan Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot institutining bir yillik tayyorlov kursini tugatib, huquq fakultetining ikkinchi kursiga qabul qilinadi. O'sha davrlarda O'rta Osiyoda hali yuridik fan yaxshi rivojlanmagan edi, oliv ma'lumotga ega mutaxasislar yo'q edi. Xadicha Sulaymonova faqat bu bilan cheklanib qolmay, Moskva yuridik institutida aspiranturada o'qiydi. U "Harbiy intervensiya va grajdalar urushi davrida O'zbekistonning jinoyat qonunlari" mavzusidagi ilmiy ishini tayyorlashga kirishadi. Ilmiy izlanishlari o'z samarasini berib, 1945-yilda SSSR Adliya komissarligi huzuridagi Butunitifoq yuridik fanlar institutida dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, huquqshunos fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi.<sup>18</sup> Shuningdek, huquqshunoslik sohasida ilmiy darajaga ega bo'lgan birinchi o'zbek ayoli sifatida tarixda qoladi. Jinoyat huquqi kafedrasiga rahbar etib tayinlanadi. Xadicha Sulaymonova aspirantura bilan ham to'xtab qolmadidi. 1948-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Huquq institutiga doktoranturaga o'qishga yuboriladi.

1950-yilda "O'zbekistonda jinoyat huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, Toshkent davlat yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasining professori bo'ladi. Shundan keyin 1956-yil sentyabrdan boshlab Adliya vaziri bo'lib ishlay boshlaydi.U rahbar sifatida o'z mas'uliyati va talabchanligi bilan hamkasblarini lol qoldiradi. Vazirlik faoliyatini sinchiklab o'rganib chiqadi va bir qancha o'zgarishlarni amalga oshiradi.

Xadicha Sulaymonova sud tomonidan tayinlangan jazo qilmishga munosib bo'lishi, jazoning qilmishga nisbatan ham yengil, ham og'ir bo'lishi adolatsizlik bo'ladi deb hamisha qo'l ostidagilariga uqtirardi. Bu borada buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning: "Adolat har bir ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin!" degan chuqur ma'noli so'zlarini o'zi uchun hayotiy e'tiqodga aylantirgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

<sup>17</sup> Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. Karimov I. A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. 20-jild. - T.: O'zbekiston, 2012. – B. 227-228

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Uch mashhur o'zbek ayoli. -T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2022.214bet.

<sup>19</sup> Chunki Xadicha Sulaymonova qonunchilik shafqatsiz jazo qo'llash bilan emas, uning adolatliligi orqali mustahkamlanishiga ishonar edi.

Huquqshunos olima 1964-yilda O'zbekiston Oliy sudi raisi lavozimiga saylanadi. O'sha vaqtarda ittifoqdosh respublikalar Oliy sudlari tuzilishini, faoliyatini sinchiklab o'rganadi. Xadicha Sulaymonova fuqarolarni qabul qilishga o'ta mas'uliyat bilan yondashadi. Shu ma'noda, buyuk Alisher Navoiy bobomizning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami" degan satrlarini keltirib o'tish o'rinalidir.<sup>20</sup> Chunki Oliy sud raisasi xalq dardi bilan yashar, nohaq chiqarilgan hukmlarga chidab turolmasdi.

Xadicha Sulaymonova Adliya vazirligi huzuridagi Kriminalistika ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi faoliyati bilan tanishib chiqib, uning negizida tubdan yangi-Sudekspertizasi ilmiy-tadqiqot institutini tashkil qilishga kirishadi va 1958-yil 24-yanvarda ushbu instituti tashkil etiladi. Keyinchalik bu sud ekspertizasi markaziga Xadicha Sulaymonova nomi beriladi.

Iste'dodli olima jinoyat huquqi sohasida faoliyat yuritgan. O'zbekistondagi birinchi akademik ayol edi.U kishining nomi nafaqat xalqimiz orasida, balki jahon miqyosida ham juda mashhur. Olima huquq sohasida ko'plab shogirdlarni yetishtirdi. Ulardan biri shunday degan edi: "Har qanday mohir me'mor qurgan binoning buyukligi, balandligi uning yonginasidan emas, uzoqroq joydan ko'zga ko'rindi. Shuning singari ustozning ulug'ligi, nechog'li barakali va eng kerakli ishlarni qilgani, mustaqilligimizga zamin yaratib ketganligi vaqt o'tishi bilan tobora ravshanroq ko'riniib qolmoqda." <sup>21</sup> 1965-yil 26-noyabrda Xadicha Sulaymonova bevaqt dunyodan ko'z yumdi. Atigi 52 yil umr ko'rgan bo'lsada, o'zidan butun asrga tatigulik ishlar qoldirdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, Xadicha Sulaymonovadek huquqshunos yuz yilda bir marta tug'iladi. "Kaktakto" nashri Markaziy Osiyo tarixida sezilarli iz qoldirgan ayollar ro'yxatini tuzgan.<sup>22</sup> Undan qadimgi davrdan toki bugunga qadar ko'zga ko'ringan ayollar o'rinni olgan. Ushbu ro'yxatda Xadicha Sulaymonovaning ham o'rinni oglani quvonarli holdir. Olimaning yodi hamisha qalbimizdadir. Shunday olimasi bilan o'zbek xalqi faxrlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. Sh. M. Mirziyoyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. Karimov I. A. Bizning yo'limiz –

<sup>19</sup> <https://yuz.uz/uz/news/sohibqiron-siymosiga-ehtirom-yohud-adolat-har-bir-ishda-hamrohimiz-va-dasturimiz-bolsin>

<sup>20</sup> <https://kun.uz/51701807?q=%2Fuz%2F51701807>

<sup>21</sup> Xadicha Sulaymonova-huquqshunos, olima, davlat arbobi/M.Hakimov, G'.Ahmedov, A.Saidov. -T.: O'zbekiston, 1993.-151

<sup>22</sup> <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/markaziy-osiyoning-buyuk-ayollari>

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-7 ISSUE-4 (30- April)**

---

demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. 20-jild. - T.: O'zbekiston, 2012. – B. 227-228;

2. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi. Uch mashhur o'zbek ayoli. -T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2022.214bet;

3. <https://yuz.uz/uz/news/sohibqiron-siymosiga-ehtirom-yohud-adolat-har-bir-ishda-hamrohimiz-va-dasturimiz-bolsin>;

4. <https://kun.uz/51701807?q=%2Fuz%2F51701807>;

5. Xadicha Sulaymonova-huquqshunos, olma, davlat arbobi/M.Hakimov, G'.Ahmedov, A.Saidov. -T.: O'zbekiston, 1993.-151;

6. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/markaziy-osiyoning-buyuk-ayollari>